

HANGIL YOZUV TIZIMINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Jaxonova Farangiz Islom qizi

SamDCHTI Sharq tillari fakulteti, 2-kurs bakalavri

Raxmonova Mubarro Tolibovna

SamDCHTI Sharq tillari fakulteti koreys filologiyasi

kafedrası o'qituvchisi

Til va yozuv har bir millatning ma'naviy boyligi, madaniy merosi va milly o'zligini ifoda etuvchi eng muhim vositadir. Dunyo tillari orasida koreys tili alohida o'rin egallaydi. Chunki u o'zining noyob fonetik tizimi, grammatik tuzilishi va maxsus yozuv tizimi Hangil bilan olamga mashhur. Bugungi kunda Hangil nafaqat Shimoliy va Janubiy Koreyada balki koreys diasporasi yashaydigan ko'plab mamlakatlarda ham keng qo'llaniladi. Ushbu maqolada Hangil yozuv tizimining tarixiy shakllanish jarayoni, grafik va fonetik xususiyati, shu bilan bir qatorda uning lingvistik va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi.

Hangil yozuv tizimi o'zining tarixiy ahamiyati, ilmiy asoslanganligi va lingvistik mukammalligi bilan ajralib turadi. U nafaqat koreys xalqining milliy iftixori, balki insoniyatning yozuv madaniyatiga qo'shgan bebaho hissasidir. Bugungi kunda Hangil butun dunyo miqyosida o'rganilmoqda va uning qulayligi, sodda tuzilishi hamda ramziy mazmuni sababli lingvistlar tomonidan chuqur tadqiq etilmoqda.

Hangilning yaratilish tarixi. Koreya tarixida XV asr ilmiy, madaniy va siyosiy jihatdan yuksalish davri bo'lgan. Aynan shu davrda, 1443-yilda Choson sulolasi davrida Qirol Sejong va uning olimlari tomonidan Hangil yaratilgan. Ammo u rasmiy ravishda 3 yildan so'ng, ya'ni 1446-yilda "Hunminjeongeum" (xalq nutqini to'g'ri ifodalash uchun to'g'ri tovushlar) nomi bilan e'lon qilingan. O'sha davrda koreys xalqi xitoy hierogliflari - Hanjalarni qo'llagan edi. Lekin bu yozuv turi oddiy xalq uchun murakkab, tushunish uchun qiyin bo'lgan. Qirol Sejongning maqsadi oddiy odamlar ham qisqa muddatda o'qish va yozishni o'rganishi mumkin bo'lgan milliy yozuv yaratish edi. Shu sababli Hangil oddiy aholi uchun tushunarli, o'qish uchun oson qilib yaratilgan milliy yozuv sifatida yaratilgan. Bu yaratilish koreys jamiyatida ijtimoiy tenglik va ma'naviy rivojlanish uchun muhim qadam bo'lgan. [1]

Grafik tuzilishi va yozuv prinsiplari: Hangilning asosiy xususiyati – u fonematik yozuv tizimi bo'lib, tovushlarni aniq ifodalaydi. Uning harflari tovush apparatining artikulyatsion shakllariga asoslangan. Undoshlarning belgisi til va labning o'rni, unli tovushlarning belgisi esa osmonga, yerga va odamga oid falsafiy ramzlardan olingan. Masalan (•) nuqta osmon, (-) chiziq yer, (|) tik chiziq odam degan ma'nolarni anglatadi. Ularning kombinatsiyasi orqali barcha tovushlar hosil bo'ladi.[2] Shu sababli Hangil lingvistik jihatdan ham, vizual ramziy ma'noda ham noyob hisoblanadi. Shuningdek, Hangilda yozuv bo'g'in kvadrat shaklida tuziladi. Har bir bo'g'in alohida blok ko'rinishida yozib, ichida undosh va unilarning joylashuvi qat'iy qoidalarga asoslanadi. Bu esa koreys tilining bo'g'in asosli fonologiyasiga mos keladi.

Fonematik tarkibi: Dastlab Hangil 28 ta harfdan iborat edi, hozirgi kunga kelib zamonaviy koreys alifbosida esa 24 ta harf mavjud. Bular 14 ta undosh va 10 ta unli harflardir. Harflar bir-biri bilan qo'shilib yangi bo'g'inni hosil qiladi. Bu tizimning afzalligi shundaki, yozuv ham, tovush ham bo'g'inni aniq ko'rsatadi. Fologik jihatdan Hangil yuqori darajada mukammal qilib yaratilgan.[3] Hangil UNESCO tomonidan 1997-yilda "Dunyo xotirasi" yozuv ro'yxatiga ham kiritilgan yozuv hisoblanadi. Bu esa uning madaniy ahamiyatini yanada tasdiqlaydi.

Madaniy va zamonaviy ahamiyat. Bugungi kunda Hangil koreys xalqining milliy g'ururi va madaniy merosining ajralmas qismiga aylangan. Har yili Janubiy Koreada 9-oktabr "Hangil kuni" sifatida nishonlansa, bu bayram Shimoliy Koreyada 15-yanvarda nishonlanadi. Hangil nafaqat yozuv tizimi, balki koreys adabiyoti, san'ati, ta'lim tizimi va axborot texnologiyalari rivojida ham asosiy o'rin tutadi.[4] Bugungi kunda Hangil orqali dunyo bo'ylab millionlab koreys tilini o'rganuvchilar o'z bilimlarini oshirmoqda. Internet va raqamli texnologiyalar asrida Hangil mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt tizimlarida keng qo'llanilib, koreys madaniyatini global miqyosda ommalashtirmoqda.

Zamonaviy davrda koreys yozuvi K-pop, K-drama, koreys kinolari, taom madaniyati va moda industriyasi orqali dunyo xalqlari orasida keng tanildi. Ayniqsa, xalqaro miqyosda koreys madaniyatiga bo'lgan qiziqishning oshishi bilan birga, Hangilni o'rganishga bo'lgan talab ham sezilarli darajada kuchaydi. Bu esa koreys tilining xalqaro nufuzini yanada oshirib, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Hangilning soddaligi va fonetik jihatdan mukammalligi sababli u ta'lim tizimida o'qitish uchun eng qulay yozuvlardan biri hisoblanadi.[5] Shuning uchun ham Koreya hukumati va turli xalqaro tashkilotlar Hangilni o'rganish bo'yicha onlayn kurslar, raqamli platformalar va madaniy dasturlarni rivojlantirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Hangil nafaqat yozuv tizimi, balki koreys xalqining o'zligini ifodalovchi, milliy birlikni mustahkamlovchi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan madaniy qadriyat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sohn, Ho Min (1999). The Korean Language. Cambridge University Press.
- 2.King, Ross (1996) Hangul: Korea's Unique Alphabet. Korean Studies 3.University of Hawaii Press
- Lee, Iksop & Ramsey, S. Robert (2000). The Korean Language. State University of New York Press
- 4.Cho Yoon Joo (2014). Hangul and its Scientific Design. Korean Linguistics Journal.
- 5.Standard Dictionary of the Korean Language. 표준국어대사전. Korea, 2012